Shuni e'tirof etish lozimki, hozirgi davrda xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda ekologik iqtisodiyot haqida ham fikrlar keltirilgan bo'lib, hozirda u rivojlanish bosqichida. Ekologik iqtisodiyot asoschilari bo'lib, amerikalik iqtisodchilar, Robert Konstanza va German Deylilar hisoblanadi. Ular o'zlarining 1989-yilda nashr qilgan "Ekologik iqtisodiyot: fan va barqarorlikni boshqarish" nomli asarlarida ekologik iqtisodiyot jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni hamda tabiat va biologik xilma-xillikni himoya qilish mexanizmlarini o'rganuvchi fan deb talqin qilingan.

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasi bilan bir qatorda "yashil" o'sish, barqaror o'sish tushunchalari ham xalqaro kelsikonga kirib keldi. Chunki, bu tushunchalar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar bo'lib, ular bir-birini taqozo etadi. Ammo, dastlab, xalqaro ko'lamda "barqaror o'sish" tushunchasi tahlil etilib, uni ta'rifi keltirilgan. 1987-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiyasining "Bizning umumiy kelajagimiz" nomli ma'ruzasida "barqaror o'sish" tushunchasi ta'rifi keltirilgan. Unga ko'ra, "Barqaror o'sish – bu kelajak avlod manfaatlarini uchun zarar keltirmagan holda bugungi avlod manfaatlarini qondirishga yo'naltirilgan rivojlanishdir" [7]. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi komponenti, ya'ni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy komponentlarni o'zida mujassamlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqoridagi maqsadga erishish uchun ilmiy tadqiqotning nazariy uslublaridan: ya'ni tahlil va sintez, ilmiy abstraksiya, mantiqiy yondashuv, dialektika uslublaridan keng foydalanib, mazkur muammoga oid bo'lgan ilmiy adabiyotlar o'rganilib, tahlil va xulosalar qilindi. Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ko'plab xalqaro tashkilotlar xujjatlari, xorijiy ilmiy maqolalar hamda mamlakatimizda nashr etishgan ilmiy ishlar o'rganilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror o'sish cheklangan tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga va material tejamkorligiga asoslangan texnologiyalarni ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'llashni talab etadi. Ushbu holatdagina jamiyatning ijtimoiy va madaniy tizimlarning barqarorligi mutanosibligi hamda tabiatning biologik tizimi yaxlitligi saqlanib qoladi.

Hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanayotgan "Yashil" iqtisodiyotning ta'rif 2009-yilda UNEP (United Nations Environment Programme) tomonidan keltirilgan bo'lib, u quyidagicha: "Yashil iqtisodiyot" – bu kelajak avlodni xavf va ekologik resurslar tanqisligiga qo'ymagan holda istiqbolda insonlar yashash sharoitini yaxshilashga olib keluvchi, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat tizimidir" [8].

"Yashil" o'sishning ta'rifida dastlab Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari uchun Ijtimoiy va iqtisodiy komissiyasi tomonidan keltirilgan. Ushbu komissiya 2005-yilda Seulda qabul qilgan Deklaratsiyasida "yashil" o'sish barqaror rivojlanishga erishishning strategik yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. Deklaratsiyada "yashil" o'sishga quyidagicha ta'rif berilgan: "Yashil o'sish – bu atrof-muhitga past darajada zararli chiqindilarni chiqarishga asoslangan ekologik barqaror iqtisodiy jarayonni ta'minlovchi o'sishdir" [9]. Shuni e'tirof etish kerakki, Janubiy Koreya "yashil" o'sish strategiyasini ishlab chiqqan va uni mamlakat milliy iqtisodiyotini modeli sifatida qabul qilgan ilk davlatdir.

Ilmiy adabiyotlarda "yashil" iqtisodiyot va "yashil" o'sishga ko'plab ta'riflar keltirilgan. Mazkur ta'riflarda "iqtisodiyot", "atrof-muhit", "jamiyat" kabi konseptual elementlar ko'proq, "Iqtisodiy o'sish", "o'sish", "tabiiy resurslar", "barqarorlik", "innovatsiya", "texnologiya", "bozor" kabi elementlar kamroq uchraydi. Shu bilan bir qatorda "yashil" iqtisodiyot to'g'risidagi ko'plab ta'riflar UNEP tomonidan berilgan ta'rifga o'xshash bo'lib, "ekologik xavf", "tabiiy resurslar taqchilligi", "insoniyat farovonligi" kabi konseptual ta'rif elementlarini o'zida mujassamlashtirgan. Yillar bo'yicha "yashil" iqtisodiyotga berilgan ta'riflar tahlili asosida shunday xulosa qilishimiz muminki: birinchidan, "yashil" iqtisodiyot va "yashil" o'sish tushunchalari o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar sifatida ko'p qo'llaniladi, ammo "yashil" o'sish ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish tushunchalari bilan ko'proq uzviy bog'liq. "Yashil" iqtisodiyot esa ijtimoiy masalalar va ekologik chegaralanganlik bilan ko'proq bog'liq. Ikkinchidan, 2008-yillarda "yashil" iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgan ko'plab tushunchalar, ya'ni "sirkular iqtisodiyot", "bioiqtisodiyot", "past ug'liroqlik" (zararli) iqtisodiyot tushunchalari paydo bo'lgan. Uchinchidan, "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi vaqt o'tishi va muammoga oid ilmiy ishlanmalarni nashr qilinishi bilan tobora boyib, ko'p qirrali tushunchaga aylanib bormoqda, to'rtinchidan, "yashil" iqtisodiyotga beriladigan ta'riflar turli tumanligi ko'payib bormoqda.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan barcha ta'riflar "yashil" iqtisodiyotning shunday modelini tavsiflaydiki, bunda "yashil" o'sish orqali aholi turmush sifatini oshirish birlamchi maqsad hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda keltirilgan ta'rif va tavsiflarda yashil iqtisodiyotni shakllanishida innovatsion "yashil" texnologiyalar katta ijobiy rol o'ynashi ta'kidlanadi. Boshqa ilmiy tadqiqotlarda esa, ya'ni tarmoqlar va sohalar bo'yicha tadqiqotlarda "yashil moliya", "yashil xarid", "yashil ish o'rni", "yashil mahsulot" va shunga o'xshash boshqa ko'plab tushunchalarni uchratish mumkin. Bu holat shundan dalolat beradiki, "yashil" iqtisodiyotning konseptual o'zagi tobora yaqqolroq namoyon bo'lib bormoqda.

"Yashil" iqtisodiyot to'g'risidagi ilmiy qarashlar, tadqiqotlar, turli harakatlarni ko'payib borishi bilan davlatlarning iqtisodiy siyosatida atrof-muhit, ob-havo o'zgarishi, tabiiy resurslarni tugab borishi, yer erroziyasi va cho'llanish kabi muammolarga ko'proq e'tibor berilayotgani muhim jihat hisoblanadi. Chunki, bu hol mamlakatni, millatni barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga imkoniyat yaratadi.

Bizning fikrimizcha, milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish natijasi bo'lmish Yalpi milliy mahsulot ko'proq aholi turmush sifatini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida qaralib, atrof-muhit mohofazasi, odamlarni yashash sharoiti kabilarni inobatga olmaydi. Yana shuni e'tirof etish lozimki, hozirgi davrda insonlarni turmush sifati ularni faqat moddiy ta'minlanganlik darajasi bilan belgilanmaydi, balki tabiiy ijtimoiy muhit sog'lom turmush tarzi, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari, toza tabiat kabi holatlar ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Demak, "yashil" iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishga erishishda tabiat resurslaridan tejamkorlik bilan oqilona foydalanish va insonlarning farovonligini oshirish bosh maqsad hisoblanadi.

Davlat atrof-muhit holatini yaxshilash va "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish uchun o'zining barcha siyosiy dastaklari va mexanizmlaridan foydalanishi zarur. Bunda asosiy e'tibor huquqiy-me'yoriy asosni shakllantirish, savdoni yaxshilash, fiskal chora-tadbirlarni maqsadli bo'lishi "yashil" texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, uglevodorod chiqindilarni o'lchash uchun milliy va xalqaro standartlarni ishlab chiqish, atrof-muhit muammolari yechimiga xalqaro tashkilotlarni jalb etish, "yashil" tovarlarga davlat xaridini ko'paytirish kabilarga qaratilmog'i lozim. Shu bilan birgalikda "yashil" tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi kichik va xususiy biznes subyektlarini rag'batlantiruvchi siyosatni keng qo'llash ham muhimdir.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy maqsadi iqtisodiy o'sish hisoblanadi, ammo tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish hisobiga farovonlikni oshirish, atrof-muhitga ko'proq zarar keltiradi. Bundan



tashqari, iqtisodiy o'sish so'ngi natija sifatida oxir-oqibatda turmush sifatini pasaytirishga, insonlar o'rtasida ijtimoiy muloqotni kamayishiga, ijtimoiy birlikni buzilishiga, jinoyatchilikni oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham hozirgi davrda "sof" iqtisodiy o'sishga nisbatan iqtisodiyotga "yashil" texnologiyalarni qo'llash, qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali "yashil" o'sishga erishish zarurati kuchayib bormoqda.

Fikrimizcha, ananaviy iqtisodiyot sharoitida barqaror iqtisodiy o'sish modeli tabiat, jamiyat va iqtisodiyotni bir-biridan alohidalashgan holatida amal qilmoqda. Ammo, ularning o'zaro uyg'unligi barqarorlikni ta'minlaydi. "Yashil" iqtisodiyot paradigmasiga muvofiq inson kapitali (ya'ni jamiyat) tizim osti unsuri hisoblanadi. Jamiyat esa o'z navbatida tabiatning tizim osti unsuridir. Ma'lumki tabiatdagi barcha resurslar (yer, o'rmon, suv, yer osti boyliklari) uni ko'paytirish, kengaytirish imkoni yo'q. Demak tabiat ma'lum bir imkoniyat va chegaraga ega. Bunday holatda iqtisodiyot ham e'tirof etilishi va amal qilishi lozim.

Iqtisodiyot ham jamiyat ham atrof-muhit bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ham barqarorlikka erishish uchun jamiyat iqtisodiy o'sish sifati o'zgartishi lozim, ya'ni uni o'sish suratini qayta tiklanmaydigan tabiat resurslaridan foydalanishni qisqartirish, qayta tiklanadigan ekologik resurslardan ko'proq, samaraliroq foydalanish, shuningdek, tovarlar ishlab chiqarish va qayta ishlashda resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda ko'plab rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda "chiqindisiz ishlab chiqarish", "zanjirli ishlab chiqarish", "siklli iqtisodiyot" kabi yangi texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Bu holat, oqibatda "yashil" sanoat inqilobini amalga oshirishga hamda "yashil" biznesni, tadbirkorlikni keng rivojlanishiga olib keladi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, hozirgi vaqtda jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Uni keng amal qilishida turli xil xalqaro va mahalliy ekologik jamiyatlar katta rol o'ynaydi. Bunday jamiyatlar "yashil" iqtisodiyot tadqiqotlar olib borib, turli xil modellar, yondashuvlar, baholash uslublarini ishlab chiqishda hamda ekologik loyihalarni moliyaviy ta'minlash ishlarini amalga oshiradi.

"Yashil" iqtisodiyotning o'rni va rolini Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanishi misolida ko'rishimiz mumkin. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining barqaror rivojlanish modelida "yashil" iqtisodiyot omillari ahamiyati baholangan. Buning uchun "beshlik spirati" (Quintuple Helix) modelini qo'llashgan. Bu model sifatli boshqaruv, samarali rivojlanish, tabiiy muvozanatni tiklash va biologik xilma-xillikni saqlash kabi omillarga asoslanadi. Ushbu model qay tarzda bilish, innovatsiya va atrof-muhitni o'zaro uzviy bog'liqligini izohlaydi. Model bir qator tizimlarni, ya'ni, ta'lim tizimi (inson kapitali), iqtisodiy tizim (iqtisodiy kapital), siyosiy tizim (siyosiy-huquqiy kapital) va atrof-muhitni (tabiiy kapital) o'zida mujassamlashtirgan model asosida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

"Yashil" iqtisodiyot bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili, ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra asosan oltita omillar tahliliga asoslanadi. Bu omillar quydagilardan, inson kapitali kompetensiyasi, texnologiyalar, moddiy resurslar bozorlari, ijtimoiy institutlar va davlat siyosatidan iborat. Ushbu omillardan foydalangan holda "yashil" o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchini, to'siqlarini izohlash mumkin. Birinchidan "yashil" o'sish kompetentlikni talab etadi, chunki kompetentlik xususiy sektorda ham, davlat sektorida ham murakkab, nonstandard holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, texnologik jarayonlar "yashil" texnologiyalarga yo'naltirishi zarur, shuningdek, qisqa muddatli foyda keltiradigan, vaqtinchalik texnologiyalardan voz kechish lozim. Uchunchidan, insonlarning "yashil" o'sishiga erishishi uchun bilimlar imkoniyati zamonaviy bozorlarni baholashga, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmalardagi va transformatsion tizimlardagi uzilishlarga asoslanmog'i lozim. To'rtinchidan, turli ko'lamlarda "yashil" o'sish geografiyasiga e'tibor qaratish kerak. Yuqori miqdorda daromad oluvchi mamlakatlar "yashil" texnologiyalarga tezroq o'tishadi. "Yashil" o'sishga asosiy to'siq sifatida innovatsiyalar drayveri bo'lish universitetlarning, markazlarning mavjud emasligini keltirish mumkin. Iste'molchi hatti-harakatini tushunish, bilish ham "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omilidir. Soliqni tartibga solish ham yashil iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi vosita hisoblanadi. Geografik nuqtai-nazardan qulay joylashgan, tabiiy resurslari yetarlicha bo'lgan mamlakatlar resurslari cheklangan mamlakatlarga nisbatan "yashil" iqtisodiyotga sekinlik bilan o'tishadi.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasiga ko'ra tabiiy resurslarni cheklanganligi va tugab borishi muhim ekologik muammo hisoblanadi. Ammo shuni e'tirof etish lozimki, "yashil" iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, resurslarni cheklanganligi va tabiatdagi o'zaro bir-biri bilan bog'liqlik muhim iqtisodiy-ijtimoiy aksioma hisoblanadi. "Yashil" iqtisodiyotni qaror topishi va rivojlanib borishi milliy mamlakatlarni qiymmat o'zgarishlariga va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga moslashib borishga sabab boladi. Bu hol o'z navbatida barqaror o'sishning muhim omili hisoblanadi.

Tabiiy resurslarning tez tugab borishi sababi - bu iqtisodiy rivojlanishning texnogen rivojlanishidir. Rivojlanishning bunday turi o'z navbatida, negativ iqtisodiy va ekologik oqibatlarga sabab bo'ladi. Ma'lumki, tabiiy resurslarning uch turi ya'ni; tugallanadigan va tiklanmaydigan, tugallanadigan va tiklanadigan, tiklanmas va tugallanmas turlari mavjud. Resurslarning bunday turlarga bo'linishidan kelib chiqib, ko'pchilik olimlar, xususan, rossiyalik olimlar barqaror rivojlanishning to'rtta mezonini taklif etishmoqda. Birinchisi, tiklanadigan



tabiiy resurslardan foydalanish ma'lum darajasini qo'llab-quvvatlash; ikkinchisi, qayta tiklanmas tabiiy resurslardan foydalanish darajasini pasaytirish va istiqbolda uni o'rnini bosuvchi, tiklanuvchi resurslar bilan almashtirish; uchinchisi kam chiqimli va resurs tejovchi texnologiyalardan keng foydalanish orqali chiqindilarni minimallashtirish; to'rtinchisi, atrof-muhit ifloslanishi ustidan nazorat. Bu mezonlar "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi paradigmasini shakllantirishni dolzarbligini keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda, bizning fikrimizcha, "yashil" iqtisodiyot masalasida to'rt xil yondashuv, ya'ni, umumiy iqtisodiy-iqtisodiyotni ekologiyazonalash, tarmoq- "yashil" tarmoqlarni shakllantirish va rivojlantirish, texnologik-ekologik sof sanoat va oziq-ovqat ishlab chiqarishni ta'minlaydigan yangi texnologiyalarni yaratish, sivilizatsion-jamiyat qadr-qimmati va ma'daniyatidagi ijobiy o'zgarishlar insonlar ongini o'zgarishi.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdan tashqari innovatsiyalar keng joriy etish maqsadga muvofiq. Innovatsiyalarsiz "yashil" o'sishning imkoni yo'q. Agar bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda unumdorlikni o'sishi indeksi tahliliga qaraydigan bo'lsak, innovatsiyalar va "yashil" texnologiyalar bo'yicha ular bir-biridan keskin farq qiladi. Mamlakatlar unumdorlik jarayonini uch turini ya'ni quvib etish samarasi, innovatsiya samarasi va texnik-texnologik yetakchilik turlarini ajratish mumkin. Agar jahon mamlakatlari unumdorlik jarayoni holati bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Lotin Amerikasi mamlakatlariga quvib etish samarasi va Yevropa mamlakatlari texnik-texnologik yetakchilik samarasiga xos xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. "Yashil" texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida holat turli davlatlarda turlicha bo'lganligi sababli ushbu jarayonni boshqarishda o'z yondashuvlarni ishlab chiqarish maqsadga muvofiq. Misol uchun Amerika mamlakatlarida "yashil" ishlab chiqarishni kengaytirish va samarali bo'lish uchun atrof-muhitni ifloslanishini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya va tabiiy resurslardan samarali qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosati muhim rol o'ynaydi. Osiyo mamlakatlari esa "yashil" iste'mol (iste'mol madaniyati) masalasiga, ya'ni iste'molchilarga barqaror ishlab chiqarish va chiqindilarni qayta ishlashni rag'batlantirish masalasiga e'tiborlarini qaratishlari muhimdir. Yevropa mamlakatlari esa "yashil" innovatsiyalarni yanada rivojlantirishi maqsadga muvofiq.

"Yashil" innovatsiyalarni qo'llab quvvatlashda asosiy e'tiborni siyosiy vositalar, xususi va davlat investitsiyalarini yo'naltirish, huquqiy-me'yoriy qonunchilikni jonlantirish, sanoat ishlab chiqarish sohasida "yashil" standart siyosatini qo'llash kabilarga e'tibor berishi lozim.

Barqaror iqtisodiy o'sish konsepsiyasiga oid turli xil farqlar mavjud. Metodologik nuqtai-nazardan barqaror rivojlanish iqtisodiy o'sishni qamrab olishga qaramasdan "yashil" iqtisodiyot va iqtisodiy o'sish hamma vaqt ham bir-biriga uzviy bog'liq emas degan nuqtai nazar ham mavjud. Bu borada hozirgi vaqtda uch xil radikal transformizm, kooperativ reformizm va statistik progressizm yondashuv mavjud. Radikal transformizm, ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sish g'oyasini bir-biriga muvofiq emasligini izohlasa, kooperativ reformizm esa, aksincha ekologik barqarorlik iqtisodiy o'sish g'oyasini bir-biriga muvofiq ekanligini izohlaydi. Statistik progressizm g'oyasi esa radikal transformizm va kooperativ reformizm g'oyalari o'rtasidagi g'oya hisoblanadi. U global iqtisodiy o'sish g'oyasini qo'llab-quvvatlovchi farovonlik iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat yaratishga qaratilgan [2].

Barqaror iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida 2015-yilda BMTga a'zo mamlakatlar "2030-yilgacha barqaror iqtisodiy o'sish" dasturi qabul qilindi. Maskur dastur 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlaridan iborat. "Yashil" iqtisodiyot barqaror iqtisodiy o'sish maqsadlari bilan uzviy bog'liq. Bu biz "yashil" iqtisodiyot va barqaror iqtisodiy o'sish maqsadlarining klassifikatsiyasi mezonlarining umumiylikida ko'rishimiz mumkin.

"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarga 10 dan ortiq me'zonlar ishlab chiqilgan. Ushbu mezonlar uch yo'nalishdagi, ya'ni ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni qamrab olgan. Ekologik yo'nalishdagi barqaror rivojlanish ekologik muammolar va atrof-muhit sifatini yaxshilashga qaratilgan me'zonlarni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy yo'nalishdagi barqaror rivojlanish "yashil" iqtisodiyotga xos bo'lgan o'zgarishlarni, ya'ni aholi turmush sifati va hayotiy standartlardagi (ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy infratuzilma, daromad, inflatsiya darajasi) o'zgarishlarni qamrab oladi. Ijtimoiy sohadagi barqaror iqtisodiy o'sishning samarali komponentlari bo'lib tinchlik, haqqoniylik, kuchli institutlar, ijtimoiy adolatlilik hisoblanadi. Iqtisodiy yo'nalishdagi barqaror rivojlanish esa, quydagi sof iqtisodiy elementlarni, ya'ni barqaror iqtisodiy o'sish, kambag'allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi barqarorligini qo'llash, sog'lom turmush tarzini ta'minlash kabi elementlarni o'zida mujassamlashtiradi.

"Yashil" iqtisodiyotni rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarga to'xtaladigan bo'lsak, ko'pchilik tadqiqotchilar yalpi ichki mahsulot "yashil" iqtisodiyot holatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi degan xulosa qilishgan, chunki ularning fikricha, yaratilgan yalpi ichki mahsulotga ijtimoiy va ekologik omillar inobatga olinmaydi [3,14].

Shuning uchun ham hozirgi davrda "yashil" iqtisodiyotga o'tish holatini ifodalovchi turli metodikalar taklif qilinmoqda. Ularning ichida eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkich "yashil" iqtisodiyotning global indeksidir. Mazkur indeks to'rtta ko'rsatkichlar ya'ni inderlik va klimat o'zgarish sohalar samaradorligi; bozorlar va investitsiyalar hamda atrof muhit o'zgarishlari asosida hisoblanadi va milliy mamlakatlarning "yashil" iqtisodiyot holati baholanadi.



Jahon mamlakatlarining “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish tajribasi shuni ko’rsatadiki, bu jarayonni amalga oshirish uchun bir-biriga bog’liq bir qator tadbirlarni amalga oshirishi kerak. Bular quydagilar:

jahon va milliy mamlakatlar ko’lamida ekologik qonunchilikni rivojlantirish va ularni samarali suv, havo, yer resurslari hamda chiqindilarni qayta ishlashda keng foydalanish;

tabiiy, organik mahsulot va tovarlarni sertifikatlash;

ekologik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;

atrof-muhit o’zgarishlari oqibatlarini yumshatish hamda qonunchilik va iqtisodiy vositalardan foydalanish;

shaharlarda energiya samaradorligini oshirish bo’yicha tadbirlarni joriy oshirish va “aqlli” shahar va qishloq loyihalarini amaliyotga qo’llash;

“yashil” ish o’rinlarini yaratish va ular uchun investitsiyalarni jalb etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Yashil” iqtisodiyotga oid konseptual tadqiqotlarni hamda xalqaro, mahalliy huquqiy-me’yoriy va ijtimoiy-iqtisodiy hujjatlarni tahlili asosida quydagi xulosa va takliflarni keltirishimiz mumkin.

1. “Yashil” iqtisodiyot – bu atrof-muhitni ifloslanishini oldini olishga, mavjud resurslar samaradorligini oshirishga, ekotizm va biologik xilma-xillikni saqlab qolishga qaratilgan davlat, jamoa, xususiy shaxslar manfaatini o’zida ifodalaydigan ijtimoiy-inklyuziv munosabatlar tizimidir.

2. “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi atrof-muhitga salbiy o’zgarishlarni paydo bo’lishi bilan vujudga kelgan konsepsiya bo’lib nafaqat ekologik muammolar bilan bog’liq, balki insoniyat jamiyatini farovonligi bilan chambarchas bog’liqdir.

3. “Yashil” iqtisodiyotga o’tish jarayonida davlat turli jamoa tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari va alohida shaxslar tomonidan hamda davlatlar o’rtasida hamkorlik talab etiladi.

4. Qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiiy resurslardan tejab foydalanishni ta’minlovchi biotexnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi.

5. Aholining “yashil” iqtisodiyot bo’yicha tafakkurini, bilimi va dunyoqarashini shakllantirish hamda tabiatdan ratsional foydalanishda kompleks yondashish “yashil” iqtisodiyot samaradorligini garovi hisoblanadi.

6. “Yashil” iqtisodiyot va iqtisodiy o’sish mutanosibligi to’g’risidagi ilmiy munozaralar jamiyat qiziqishlari va atrof-muhit masalalarida optimal yechimlarni yaratishga sabab bo’ladi.

7. Jahon mamlakatlarini barqaror rivojlanishi “yashil” o’sish strategiyasidan foydalanib “yashil” iqtisodiyot sharoitida bo’lishi mumkin. Bunda “yashil” iqtisodiyot samarali amal qilishining asosiy ko’rsatkichi sifatida yalpi ichki mahsulot emas, balki “yashil” iqtisodiyot global indeksi, ekologik natija (ekologik oqibat) kabi ko’rsatkichlardan foydalanishga e’tibor berish lozim.

Umumiy holda “yashil” iqtisodiyot yashil o’sish barqaror rivojlanish borasida ilmiy tadqiqotlar hozirgi davrda tobora dolzarblashib bormoqda va ular yangicha yondoshuvlar, uslubiyatlarni to’ldirib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Pearce D., Markandya A., Barbier E.B. Blueprint for a Green Economy. – London. Earthscan, 1989, 191-192 p.
2. Pearce D. Green Economics // Environmental Values 1. 1992. - №1. P. 3-13.
3. Costanza R. Ecological economics: the science and management of sustainability. New York: Columbia University Press. 1991. – 525 p.
4. Kasztelan A. Greengrowth, green economy and sustainable development: terminological and relational discourse. // Prague Economic Papers. – 2017. №26 (4) – P. 487-499.
5. Черешнев В.А., Никулина Н.Л., Боярский А.И. Эволюция исследованной от устойчивого развития к «зелёной» экономике. Вестник ЗабГУ. – 2014. - №8. с. 133-143.
6. Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей 27 июля 2012 года 66/288. Будущее которого мы хотим [Электронный ресурс]. URL: <https://www.unisdr.org/files/rezolutions>.
7. Селишева Т.А., «Зеленая» экономика как модель устойчивого развития стран ЕАЭС. // Евразийская экономическая перспектива: проблемы и решения. 2018. - №3. с. 6-12.
8. The club of Rome, The Limits to Growth, URL: <https://clubofrome.org/publication/the-limits-to-growth>.
9. Pearce D., Markandya A., Barbier E.B. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan, 1989. – 192 p.
10. Иванова Н.И., Левренко Л.В. «Зелёная» экономика: сущность принципы и перспективы. // Вестник Оценного Университети, серия «Экономика». - 2017. - №2. с. 19-28.
11. Ямалова Н.Н., Рубан Д.А. Особая значимость экономического фактора для устойчивого развития национальной экономике концептуальной анализ. // Стратегия развития экономики. 2014 - №14. – с. 20-30.
12. Вукович Н.А. «Зелёная» экономика: определение и современная эколого-экономическая модель // Вестник УрФУ. Серия экономика и управление – 2018. -Т. 17. №1. – с. 128-145.
13. Scott-Cato M. Green Economics: An introduction to Theory. Policy and Practice, London: Earthscan, 2009. – 240 p.
14. Ядрова Я.С. История экономических учений: учебник. – М.: ИНФРА – М. 2009. – 480 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
